

INSON HUQUQLARI VA SIYOSIY ERKINLIKLAR – ERKIN JAMIYAT ASOSLARI

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va suv xo'jaligi fakultetining
Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Omirbaeva Aygul Ke'nesbay qizi

Annotatsiya Ushbu maqolada inson huquqlari va siyosiy erkinliklarning demokratik jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilingan. Maqolada erkinlik tushunchasining mazmun-mohiyati, fuqarolik huquqlarining kafolatlanishi to'g'risida hamda insonning siyosiy, iqtisodiy masalalari ham yoritilgan. Shuningdek, inson huquqlarining xalqaro me'yorlari va O'zbekiston Respublikasida ularni amalga oshirish mexanizmlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, siyosiy erkinlik, demokratiya, fuqarolik jamiyati, siyosiy huquqlar

Abstract: This article analyzes the role of human rights and political freedoms in ensuring the stability of a democratic society. The article discusses the essence of the concept of freedom, the guarantee of civil rights, as well as political and economic issues of man. It also considers international standards of human rights and mechanisms for their implementation in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: human rights, political freedom, democracy, civil society, political rights

Аннотация: В статье анализируется роль прав человека и политических свобод в обеспечении стабильности демократического общества. В статье рассматриваются сущность понятия свободы, гарантии гражданских прав, а также политические и экономические проблемы человека. Также рассматриваются международные стандарты прав человека и механизмы их реализации в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: права человека, политическая свобода, демократия, гражданское общество, политические права

Inson huquqlari va siyosiy erkinliklari zamonaviy demokratik jamiyatning asosiy tayanchlaridan biridir. Har bir insonning shaxsiy erkinlik, o'z fikrini bildirish, yig'ilishlar va siyosiy jarayonlarda ishtirok etish huquqi demokratiyaning mohiyatini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan.

Inson huquqlari - har bir shaxsning qadr-qimmati va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan qoidalar majmuasiidir. Ular huquqiy davlat va konstitutsiyaviy huquqning asosini tashkil etib, shaxsning huquqiy maqomi va asosiy huquqlarining asosini ham o'zida mujassam etadi.

Ushbu tadqiqotda huquqiy tahlil, qiyosiy yondashuv va tarixiy usullardan foydalanildi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar, jumladan, BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tahlil qilindi.

Inson huquqlarining umumjahon deklaratsiyasida:

- yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik;
- sud orqali himoyalani;
- turar joy daxlsizligi;
- so'z erkinligi;
- vijdon va din erkinligi;
- mulkka egalik qilish huquqi;
- bilim olish, mehnat qilish, dam olish huquqi;
- ijtimoiy ta'minot va boshqa shu kabi huquqlar kafolatlanishi ko'rsatilgan.

Inson huquqlarining umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasida quyidagicha har bir shaxsning jamiyat oldidagi burchlari borligi, faqat shu sharoitda uning shaxsi erkin va har tomonlama kamol topishi mumkinligi haqida qayd etilgan. Bundan tashqari, inson huquq va erkinliklarini amalga oshirish Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va tamoyillariga zid bo'lmasligi ham kerakdir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining barcha printsiplial qoidalarini o'zida mujassamlantirgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonning quyidagi shaxsiy huquq va erkinliklari mustahkamlab qo'yilgan:

- yashash huquqi (25-modda);
- insonning sha'ni qadr-qimmatining daxlsizligi (26-modda);
- shaxsiy erkinlik hamda daxlsizlik huquqi (27-modda);
- o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilish huquqi(31-modda);
- fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi (33-modda);
- vijdon erkinligi (35-modda);

Shuningdek Asosiy qonunda siyosiy huquqlar, ijtimoiy va iqtisodiy, madaniy hamda ekologik huquqlar haqida keltirilgan.

Fuqarolar o'z huquqlarini himoya qilish va buzilgan huquqlarini tiklash vositalariga han egadir. Ushbu vositalar qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Fuqarolar tegishli davlat organlariga shikoyat qilishlari ham mumkin. Davlat organlari, tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslari har bir murojaatlarni to'liq, holis va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash yuzasidan zarur choralarni ko'rishlari, hamda fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash bo'yicha o'z vakolatlari doirasida chora-tadbirlar ko'rishlari shartdir.

2. Shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari va qarorlari yuzasidan sudga shikoyat qilishlari ham mumkin. Fuqarolar davlat va boshqa organlar, mansabdor shaxslarning har qanday g'ayriqonuniy harakatlaridan, shuningdek ularning hayoti va sog'lig'iga, sha'ni va qadr-qimmatiga, shaxsiy erkinligi va mulkiga, boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud orqali himoyalaniş huquqiga egadirlar.

Insonlar uzoq vaqtdan beri o'z huquq va erkinliklari uchun kurashib kelishmoqda va vaqt davomida ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Masalan:

1. "Huquqlar va erkinliklikning buyuk xaritasi (1215-yil)"
2. "Amerika Qo'shma Shtatlarining mustaqillik Deklaratsiyasi (1776-yil)"
3. "Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil)"

Siyosiy erkinliklarni ta'minlash fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faol ishtirokini rag'batlantiradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda so'z va matbuot erkinligini kengaytirish, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida salmoqli natijalarga erishildi. Bu ochiq jamiyat va fuqarolar faolligini oshirishga yordam beradi.

Inson huquqlari va siyosiy erkinliklar o'rtasidagi uyg'unlik demokratik islohotlar muvaffaqiyatiga, albatta, ta'sir qiladi. Siyosiy erkinliklar mavjud bo'lmagan jamiyatda fuqarolarning faolligi ham kamayishi mumkin, bu esa davlatning demokratik rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, erkinlik va mas'uliyat mutanosib bo'lishi kerak.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlari va siyosiy erkinliklari erkin jamiyatning asosidir. Ularni ta'minlash nafaqat huquqiy, balki ma'naviy javobgarlikni ham talab

qiladi. O‘zbekistonda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida inson huquqlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1948 yil.
3. Erkin Ernazarov, “Demokratlashtirish va inson huquqlari” jurnali
4. Mamadiyorova Madina Saydulla qizi "Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar" nomli ilmiy, masofaviy konferensiya; jurnal
5. www.un.org, www.lex.uz rasmiy manbalari.